

**KORPORATIV BOSHQARUV ILMIY YONDASHUVLARINING
EVOLYUSIYASI VA ULARNING QURILISH TARMOG'IDA
QO'LLANILISHI**

UDK: 334.72:005.35:69

G'iyosov Ilxom Karimovich

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

[*giyosov.ilhom@list.ru*](mailto:giyosov.ilhom@list.ru)

Annotatsiya. Maqolada korporativ boshqaruv ilmiy yondashuvlarining shakllanish bosqichlari, ularning institutsional, agentlik, steykxolderlik, resurslarga asoslangan, ESG va raqamli boshqaruv konsepsiyalari bilan bog'liq evolyusiyasi tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi ushbu yondashuvlarni qurilish tarmog'i xususiyatlariga moslashtirish orqali korxonalarda shaffoflik, hisobdorlik, loyiha risklarini boshqarish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishning nazariy-uslubiy asoslarini belgilashdan iborat. Tadqiqotda tizimli tahlil, mantiqiy taqqoslash, institutsional va qiyosiy yondashuv, umumlashtirish hamda statistik ma'lumotlarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Natijada qurilish korxonalari uchun korporativ boshqaruv evolyusiyasini aks ettiruvchi konseptual model, tarkibiy elementlar tizimi va baholash mezonlari taklif etildi.

Kalit so'zlar: korporativ boshqaruv, qurilish korxonalari, agentlik nazariyasi, institutsional yondashuv, steykxolderlar, ESG, raqamli transformatsiya, shaffoflik, hisobdorlik, iqtisodiy samaradorlik.

Ключевые слова: корпоративное управление, строительные предприятия, агентская теория, институциональный подход, стейкхолдеры, ESG, цифровая трансформация, прозрачность, подотчетность, экономическая эффективность.

Keywords: corporate governance, construction enterprises, agency theory, institutional approach, stakeholders, ESG, digital transformation, transparency, accountability, economic efficiency.

Kirish.

Jahon iqtisodiyotida korporativ boshqaruv tushunchasi dastlab mulkdorlar va menejerlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, sarmoyadorlar huquqlarini himoya qilish va kompaniya rahbariyati ustidan nazoratni kuchaytirish vositasi sifatida shakllangan. Biroq keyingi bosqichlarda ushbu tushuncha faqat aksiyadorlar manfaatini ta'minlash bilan cheklanmay, kengroq institutsional, ijtimoiy, ekologik va raqamli boshqaruv mazmuniga ega bo'ldi. Zamonaviy korporativ boshqaruv kompaniyaning strategik yo'nalishi, risklarni boshqarish, axborot oshkoraligi, ichki nazorat, etik me'yorlar va barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uzviy bog'liq kompleks tizimga aylandi [1; 2].

Qurilish tarmog'i korporativ boshqaruvni qo'llash nuqtai nazaridan alohida xususiyatlarga ega. Bu tarmoqda loyihalarning uzoq muddatlilik, kapital sig'imi yuqoriligi, shartnomaviy munosabatlarning murakkabligi, subpudratchilar soni ko'pligi, yer, shaharsozlik, moliyalashtirish, texnik nazorat, ekologik talablar va jamoatchilik manfaatlari o'zaro kesishadi. Shu sababli qurilish korxonalarida korporativ boshqaruv oddiy ichki ma'muriy mexanizm emas, balki loyiha portfeli, investitsiya ishonchiligi, resurslar taqsimoti, texnik sifat, xavfsizlik va ijtimoiy mas'uliyatni muvofiqlashtiruvchi institutsional mexanizm sifatida qaralishi zarur.

O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, xususiy sektorni kengaytirish, davlat ishtirokidagi korxonalar samaradorligini oshirish, qurilish va shaharsozlik jarayonlarida shaffoflikni kuchaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar korporativ boshqaruvning amaliy ahamiyatini yanada oshirmoqda. Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonunchilik, korporativ boshqaruv kodeksi, davlat ishtirokidagi korxonalarda boshqaruvni takomillashtirishga qaratilgan qarorlar va xalqaro korporativ boshqaruv standartlari milliy amaliyotni takomillashtirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda [10; 11; 12].

Shu bilan birga, qurilish korxonalarida korporativ boshqaruvni joriy etishda bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Ular qatoriga mulkdorlar va ijroiya organlari vakolatlarining to'liq ajratilmaganligi, loyihaviy risklarni baholash

tizimining yetarlicha institutsionallashtirilmaganligi, ichki nazorat va komplaens funksiyalarining formal tus olishi, axborotlar ochiqdigi darajasining turlicha ekani, raqamli texnologiyalardan foydalanishning fragmentarligi va manfaatdor tomonlar bilan muloqotning tizimli emasligini kiritish mumkin. Bu holat korporativ boshqaruv ilmiy yondashuvlarini qurilish sohasiga moslashtirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Maqolaning maqsadi korporativ boshqaruv ilmiy yondashuvlarining evolyusiyasini tizimli tahlil qilish hamda ularni qurilish tarmog'ida qo'llashning nazariy-konseptual asoslarini ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun korporativ boshqaruvga oid klassik va zamonaviy nazariyalar tahlil qilinadi, qurilish tarmog'ining institutsional va iqtisodiy xususiyatlari ochib beriladi, korporativ boshqaruv tarkibiy elementlari tizimlashtiriladi, sohadagi omillar baholanadi va qurilish korxonalari uchun mualliflik konseptual modeli taklif etiladi.

Tadqiqot ob'ekti sifatida qurilish korxonalarida korporativ boshqaruv tizimini shakllantirish va takomillashtirish jarayonlari qaraladi. Tadqiqot predmetini korporativ boshqaruv ilmiy yondashuvlarining evolyusiyasi, ularning qurilish korxonalari faoliyatidagi qo'llanilishi, manfaatdor tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish mexanizmlari va baholash mezonlari tashkil etadi. Maqolaning ilmiy yangilik elementi korporativ boshqaruv evolyusiyasini qurilish sohasidagi loyihaga yo'naltirilgan boshqaruv, raqamli shaffoflik, ESG va institutsional hisobdorlik bilan bog'lagan holda talqin qilishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Korporativ boshqaruv nazariyasining klassik asoslari, avvalo, mulkchilik va nazoratning ajralishi muammosi bilan bog'liq. A.Berle va G.Minz yirik korporatsiyalarda aksiyadorlar mulkdor bo'lib qolgani, biroq real boshqaruv vakolati menejerlar qo'lida jamlangani sababli nazorat muammosi yuzaga kelishini ta'kidlagan [3]. Keyinchalik M.Jensen va U.Mekling agentlik nazariyasi orqali menejerlar va mulkdorlar manfaatlari o'rtasidagi ziddiyatlarni iqtisodiy xarajatlar, nazorat mexanizmlari va rag'batlantirish shartnomalari bilan izohlab berdilar [4]. Ushbu yondashuv qurilish korxonalari uchun ham dolzarb, chunki loyihalarda

moliyalashtiruvchi, buyurtmachi, bosh pudratchi, subpudratchi va menejerlar o'rtasida axborot asimmetriyasi yuqori bo'ladi.

Institutsional yondashuv korporativ boshqaruvni faqat ichki kompaniya munosabatlari bilan emas, balki huquqiy normalar, mulkchilik institutlari, shartnomalar, sud-huquq tizimi, bozor infratuzilmasi va davlat tartibga solishi bilan bog'liq holda tushuntiradi. D.Nort institutlarni iqtisodiy o'yin qoidalari sifatida talqin qilib, tashkilotlar samaradorligi ular amal qiladigan rasmiy va norasmiy cheklovlariga bog'liq ekanini asoslaydi [5]. Qurilish sohasida bunday cheklovlar yer ajratish, shaharsozlik hujjatlari, tenderlar, smeta, texnik nazorat, litsenziyalash, davlat xaridlari va shartnomaviy javobgarlik orqali namoyon bo'ladi.

R.Frimen tomonidan rivojlantirilgan stejkxolderlar nazariyasi korporativ boshqaruvni aksiyadorlar manfaatini himoya qilish bilan cheklash yetarli emasligini ko'rsatdi [6]. Ushbu yondashuvda kompaniya faoliyatida xodimlar, mijozlar, jamoatchilik, davlat organlari, ta'minotchilar, kreditorlar va mahalliy aholi manfaatlari hisobga olinadi. Qurilish tarmog'i uchun bu nazariya ayniqsa muhim, chunki qurilish ob'ekti hududiy muhit, xavfsizlik, transport, ekologiya, kommunal infratuzilma va aholi turmush sifatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

O.Uilyamsonning tranzaksion xarajatlar nazariyasi korporativ boshqaruvni shartnomaviy munosabatlar, aktivlar maxsusligi, noaniqlik va opportunistik xatti-harakatlar bilan bog'liq holda tushuntiradi [7]. Qurilish loyihalarida shartnomalar ko'p bosqichli va uzoq muddatli bo'lgani uchun tranzaksion xarajatlar yuqori: loyiha hujjatlarini muvofiqlashtirish, narx o'zgarishi, muddat kechikishi, sifat bahsi, subpudratchilar ishini nazorat qilish kabi omillar korporativ boshqaruvni kuchaytirishni talab etadi.

Korporativ boshqaruvning zamonaviy xalqaro standartlari orasida G20/OECD korporativ boshqaruv tamoyillari alohida o'rin tutadi. 2023 yilda qayta ko'rib chiqilgan ushbu tamoyillar korporativ boshqaruv tizimida huquqiy-institutsional asos, aksiyadorlar huquqlari, institutsional investorlar roli, axborot oshkoraligi, direktorlar kengashi vazifalari, barqarorlik va chidamlilik masalalarini qamrab oldi [1]. Bu korporativ boshqaruv evolyusiyasi aksiyadorlik nazoratidan

barqaror qiymat yaratish va risklarni boshqarishga o'tayotganini ko'rsatadi.

IFC korporativ boshqaruv metodologiyasida ham yagona universal model mavjud emasligi, kompaniyaning tarmoq xususiyati, hayot sikli, mulkchilik tuzilmasi va risk profiliga mos boshqaruv tizimini shakllantirish zarurligi qayd etiladi [2]. Bu fikr qurilish korxonalari uchun muhim: kichik pudrat tashkiloti, yirik developer, davlat ishtirokidagi qurilish kompaniyasi va xususiy loyiha boshqaruvchisi uchun korporativ boshqaruv mexanizmlari bir xil bo'lishi mumkin emas.

So'nggi yillarda korporativ boshqaruv adabiyotlarida ESG, raqamlashtirish va barqaror rivojlanish mavzulari kengaydi. Tadqiqotlarda direktorlar kengashi tarkibi, risk qo'mitalari, komplaens tizimi, ichki audit, ESG hisobotlari va korporativ madaniyat kompaniyaning uzoq muddatli qiymatiga ta'sir etuvchi omillar sifatida qaralmoqda [8; 9]. Qurilishda bu jarayon BIM, ERP, elektron tender, raqamli smeta, texnik monitoring va ochiq hisobotlar orqali amaliy mazmun kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, korporativ boshqaruv nazariyalari yetarlicha rivojlangan bo'lsa-da, ularni qurilish tarmog'ining loyihaga yo'naltirilgan, ko'p ishtirokchili, yuqori riskli va ijtimoiy ta'siri kuchli xususiyatlariga kompleks moslashtirish masalasi yetarlicha tizimlashtirilmagan. Mazkur maqoladagi mualliflik yondashuvi shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, korporativ boshqaruvni qurilish korxonasida institutsional hisobdorlik, loyiha samaradorligi, raqamli shaffoflik va barqaror qiymat yaratishni bog'lovchi tizim sifatida talqin qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida mavzuga oid institutsional va dinamik tahlil, mantiqiy taqqoslash, umumlashtirish, ilmiy mushohada, tizimli yondashuv, statistik hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Maqola nazariy tadqiqot xususiyatiga ega bo'lib, asosiy e'tibor korporativ boshqaruv ilmiy yondashuvlarining evolyusiyasini qurilish korxonalari boshqaruvi xususiyatlari bilan bog'liq holda ochib berishga qaratildi. Qurilish korxonalarida korporativ boshqaruv mexanizmlarining tarkibiy

elementlari va ta'sir omillarini baholashda rasmiy statistik ma'lumotlar, xalqaro tashkilotlar tavsiyalari, normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy adabiyotlar mazmunan qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, sohaviy boshqaruv samaradorligini baholash uchun mezonlar tizimi va umumlashtirilgan indeks shaklidagi mualliflik yondashuvi taklif etildi.

Asosiy qism.

Korporativ boshqaruv ilmiy yondashuvlarining evolyusiyasini shartli ravishda bir nechta bosqichda talqin qilish mumkin. Birinchi bosqichda korporativ boshqaruv mulkdorlar huquqlarini himoya qilish va menejerlar ustidan nazoratni ta'minlashga qaratildi. Bu bosqichda asosiy muammo agentlik xarajatlari, ichki nazorat, dividend siyosati va direktorlar kengashining nazorat funksiyasi bilan bog'liq bo'ldi. Ikkinchi bosqichda korporativ boshqaruv institutsional muhit, huquqiy normalar va bozor infratuzilmasi bilan bog'liq holda o'rganildi. Uchinchi bosqichda manfaatdor tomonlar, ijtimoiy mas'uliyat, ekologik barqarorlik va korporativ madaniyat masalalari markazga chiqdi. To'rtinchi bosqichda raqamli transformatsiya, ma'lumotlar shaffofligi, ESG hisobotlari va risklarga chidamli boshqaruv tizimlari ustuvor ahamiyat kasb etdi.

Qurilish tarmog'ida mazkur evolyusiya oddiy nazariy o'zgarish emas, balki amaliy boshqaruv ehtiyoji sifatida namoyon bo'ladi. Qurilish kompaniyasida korporativ boshqaruv samaradorligi loyihaning moliyalashtirilishi, texnik-iqtisodiy asoslanganligi, shartnoma intizomi, resurslardan foydalanish, sifat nazorati, ishchilar xavfsizligi va ob'ektni o'z vaqtida topshirish natijalari bilan bevosita bog'liq. Shu sababli korporativ boshqaruvni faqat aksiyadorlar umumiy yig'ilishi, kuzatuv kengashi va ijroiya organi o'rtasidagi formal vakolatlar tizimi deb qabul qilish qurilish sohasi uchun tor yondashuv hisoblanadi.

Qurilish korxonasida korporativ boshqaruvning iqtisodiy mazmuni resurslarni strategik maqsadlarga yo'naltirish, loyiha qiymatini oshirish, investitsiya risklarini kamaytirish va uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta'minlashdan iborat. Ijtimoiy mazmuni esa mehnat xavfsizligi, xodimlar malakasi, aholi va buyurtmachilar manfaatlarini hisobga olish, hududiy infratuzilmaga ta'sirni

baholash bilan ifodalanadi. Institutsional mazmun korporativ qarorlar qonunchilik, shartnomaviy majburiyatlar, etik normalar, ichki reglamentlar va hisobdorlik talablariga mos bo'lishini nazarda tutadi.

Korporativ boshqaruvning qurilishdagi amaliy ahamiyati, avvalo, loyihaviy siklning barcha bosqichlarini qamrab olishi bilan belgilanadi. Buyurtmachi bilan shartnoma tuzish, loyihalash, ekspertiza, moliyalashtirish, materiallar xaridi, qurilish-montaj ishlari, texnik nazorat, ob'ektni qabul qilish va ekspluatatsiyaga topshirish jarayonlari bir-biridan ajralgan holda emas, balki yagona korporativ boshqaruv zanjirida qaralishi lozim. Ushbu zanjirda axborotlar o'z vaqtida va ishonchli bo'lmasa, boshqaruv qarorlari sifatsizlashadi, xarajatlar oshadi va loyihalar kechikadi.

1-jadval

Qurilish korxonalarida korporativ boshqaruvning asosiy tarkibiy elementlari

Tarkibiy element	Qurilish tarmog'idagi mazmuni	Asosiy boshqaruv vositasi	Kutiladigan natija
Mulkchilik va nazorat	aksiyadorlar, ta'sischi va ijroiya organlari vakolatlari ajratilishi	ustav, korporativ reglament, kengash qarorlari	manfaatlar muvozanati va mas'uliyat aniqligi
Ichki nazorat va audit	xarajatlar, smeta, shartnoma va resurslar harakatini tekshirish	ichki audit xizmati, komplaens, risk xaritasi	moliyaviy intizom va korrupsiya xavfini kamaytirish
Loyiha risklarini boshqarish	muddat, sifat, narx, material, subpudrat va xavfsizlik risklari	risk-reestr, KPI, texnik monitoring	kechikish va qo'shimcha xarajatlarni qisqartirish
Axborot oshkoraligi	moliyaviy hisobot, tender, shartnoma va loyiha ma'lumotlarining	ERP, elektron hujjat aylanishi, hisobot standartlari	Investor va buyurtmachi ishonchini oshirish

	ochiqqligi		
ESG va ijtimoiy mas'uliyat	ekologik ta'sir, mehnat xavfsizligi, resurs tejamkorligi	ESG siyosati, xavfsizlik standartlari, jamoatchilik muloqoti	barqaror rivojlanish va ijtimoiy legitimlik

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, korporativ boshqaruv elementlari qurilish korxonasida alohida ishlamaydi. Masalan, ichki nazorat loyiha risklarini boshqarish bilan bog'lanmasa, moliyaviy intizom shaklan mavjud bo'lib, amalda smeta ortiqcha xarajatlari, muddat buzilishi va shartnoma nizolari davom etadi. Xuddi shuningdek, ESG siyosati faqat hisobotda aks etib, qurilish maydonida mehnat xavfsizligi, materiallar sarfi, chiqindilarni boshqarish va aholi bilan muloqotga ta'sir qilmasa, korporativ boshqaruvning barqarorlik vazifasi bajarilmaydi.

Sohadagi statistik ma'lumotlar korporativ boshqaruvni takomillashtirish masalasi amaliy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda sanoat, shu jumladan qurilishning qo'shilgan qiymati 2024 yilda yalpi ichki mahsulotning 31,81 foizini tashkil etgan, mazkur sektor bo'yicha qo'shilgan qiymat o'sishi esa 7,24 foiz atrofida baholangan [13; 14]. Davlat statistikasi materiallarida 2025 yil yanvar-oktabr oylarida respublikada bajarilgan qurilish ishlari hajmi 247 334,4 mlrd so'mni tashkil etgani qayd etiladi [15]. Bu raqamlar qurilishda korporativ hisobdorlik, loyiha nazorati va resurslar samaradorligi masalalari iqtisodiyot uchun sezilarli ahamiyatga egaligini ko'rsatadi.

2-jadval. Qurilish tarmog'i ahamiyatini ifodalovchi ayrim statistik ko'rsatkichlar

Ko'rsatkich	Davr	Qiymat	Manba va izoh
Sanoat, shu jumladan qurilish qo'shilgan qiymati ulushi	2024 yil	31,81 %	Jahon banki WDI ma'lumotlari
Sanoat, shu jumladan qurilish qo'shilgan qiymati o'sishi	2024 yil	7,24 %	Jahon banki WDI ma'lumotlari

Respublikada bajarilgan qurilish ishlari hajmi	2025 yil yanvar–oktabr	247 334,4 mlrd so'm	O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari
Qurilish tashkilotlari soni	2025 yil 1 fevral holati	54 349 ta	Statistika agentligi ma'lumotlariga tayanilgan tahliliy axborot
Qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati	2025 yil yanvar–fevral	111,8 %	Statistika agentligi materiallari asosida

Ushbu ma'lumotlardan kelib chiqib, qurilish korxonalarida korporativ boshqaruvning samaradorligi nafaqat bir kompaniyaning moliyaviy natijalariga, balki tarmoq bo'yicha investitsiya muhiti, ob'ektlar sifati, davlat va xususiy kapitaldan foydalanish samaradorligi hamda jamoatchilik ishonchiga ta'sir qiladi. Bunda korporativ boshqaruvning evolyusion yondashuvlari qurilish tarmog'ida quyidagi amaliy vazifalarni bajarishi kerak: mulkdorlar va menejerlar manfaatlarini muvofiqlashtirish, loyiha ishtirokchilari o'rtasida hisobdorlikni ta'minlash, shartnomaviy intizomni kuchaytirish, raqamli ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish va barqaror rivojlanish talablarini biznes modeliga kiritish.

Mualliflik yondashuviga ko'ra, qurilish korxonalari uchun korporativ boshqaruvning zamonaviy modeli oltita o'zaro bog'liq blokdan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq: institutsional asos, boshqaruv organlari, manfaatdor tomonlar, raqamli shaffoflik, loyiha portfeli va ESG-barqarorlik. Institutsional asos qonunchilik, korporativ kodeks, ustav va ichki reglamentlarni qamrab oladi. Boshqaruv organlari strategik yo'nalishni belgilaydi, ijroiya organi loyihalarni amalga oshiradi, ichki audit va komplaens esa hisobdorlikni ta'minlaydi. Manfaaddor tomonlar bloki aksiyadorlar, buyurtmachilar, investorlar, xodimlar, subpudratchilar, mahalliy aholi va davlat organlari manfaatlarini muvofiqlashtiradi.

Qurilish korxonalarida korporativ boshqaruv natijalarini baholash uchun mezonlar tizimi ham zarur. Mezonlar bir tomondan moliyaviy samaradorlikni,

ikkinchi tomondan boshqaruv sifati, shaffoflik, risk nazorati va barqarorlikni qamrab olishi kerak. Chunki qurilish korxonasi faqat foyda ko'rsatkichi yuqori bo'lgani uchun samarali deb baholanmasligi lozim; agar u shartnomalarni kechiktirsa, mehnat xavfsizligi talablarini buzsa, axborotlarni yashirsa yoki loyiha sifatini ta'minlamasa, korporativ boshqaruv nuqtai nazaridan bunday samaradorlik barqaror emas.

Xulosa va takliflar

Korporativ boshqaruv ilmiy yondashuvlarining evolyusiyasi agentlik nazoratidan institutsional tartib, stejkxolderlar manfaati, ESG va raqamli shaffoflikkacha kengayib borganini ko'rsatadi. Bu jarayon qurilish korxonalarida korporativ boshqaruvni tor ma'muriy mexanizm emas, balki strategik va institutsional boshqaruv tizimi sifatida qarashni talab etadi.

Qurilish tarmog'ining loyihaga yo'naltirilganligi, kapital sig'imi yuqoriligi, shartnomaviy munosabatlar murakkabligi va ijtimoiy ta'siri korporativ boshqaruv mexanizmlarini tarmoq xususiyatiga moslashtirishni zarur qiladi. Shu sababli qurilish korxonalarida kuzatuv kengashi, ijroiya organi, ichki audit, komplaens, loyiha boshqaruvi va texnik nazorat funksiyalari o'zaro bog'langan holda ishlashi lozim.

Tadqiqotda qurilish korxonalarida korporativ boshqaruvning asosiy tarkibiy elementlari sifatida mulkchilik va nazorat, ichki audit, loyiha risklari, axborot oshkoraligi, moliyaviy intizom hamda ESG mas'uliyati tizimlashtirildi. Ushbu elementlarning o'zaro uyg'unligi korxonada hisobdorlik va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Qurilish korxonalarida korporativ boshqaruvni takomillashtirish uchun institutsional asos, boshqaruv organlari, manfaatdor tomonlar, raqamli shaffoflik, loyiha portfeli va ESG-barqarorlikdan iborat konseptual model taklif etildi. Mazkur model korporativ boshqaruvning nazariy yondashuvlarini tarmoq amaliyoti bilan bog'lash imkonini beradi.

Korporativ boshqaruv samaradorligini baholashda faqat moliyaviy natijalar bilan cheklanmasdan, boshqaruv qarorlari sifati, risk va nazorat mexanizmlari,

axborot shaffofligi hamda ESG ko'rsatkichlarini ham qamrab olish maqsadga muvofiq. Shu asosda KBSI umumlashtirilgan indeksi taklif etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. OECD. G20/OECD Principles of Corporate Governance 2023. – Paris: OECD Publishing, 2023. – URL: <https://www.oecd.org/> (murojaat sanasi: 06.07.2026).

2. International Finance Corporation. Corporate Governance Methodology and Tools. – Washington, D.C.: IFC, 2023. – URL: <https://www.ifc.org/> (murojaat sanasi: 06.07.2026).

3. Berle A.A., Means G.C. The Modern Corporation and Private Property. – New York: Macmillan, 1932.

4. Jensen M.C., Meckling W.H. Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure // Journal of Financial Economics. – 1976. – Vol. 3(4). – P. 305–360.

5. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.

6. Freeman R.E. Strategic Management: A Stakeholder Approach. – Boston: Pitman, 1984.

7. Williamson O.E. The Economic Institutions of Capitalism. – New York: Free Press, 1985.

8. Tricker B. Corporate Governance: Principles, Policies, and Practices. – Oxford: Oxford University Press, 2019.

9. Mallin C.A. Corporate Governance. – Oxford: Oxford University Press, 2019.

10. O'zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi Qonuni. 2014 yil 6 may, O'RQ-370-son. – URL: <https://lex.uz/>.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni. 2015 yil 24 aprel, PF-4720-son. – URL: <https://lex.uz/>.